“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK” JOIN-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК”

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

XARID HUJJATI

№ 162
2026 yil «15» «noyabr»

XARID HUJJATI

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ehtiyojlari uchun bank terminal tarmog‘ini kengaytirish maqsadida to‘lov uskunalari majmuasini xarid qilish

Buyurtmachi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB

Toshkent – 2026-y.

XARID TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Xarid predmeti	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ehtiyojlari uchun bank terminal tarmog‘ini kengaytirish maqsadida to‘lov uskunalari majmuasini xarid qilish
Lot bo‘linishi	Yo‘q, lot bo‘linmaydi
Xaridning reja jadvali	2026 yil IV chorak
Savdolar o‘tkaziladigan oy	Noyabr
Moliyalashtirish manbai	Buyurtmachi o‘z mablag‘lari
Boshlang‘ich narxi	**10 565 840 000** (o‘n milliard besh yuz oltmish besh million sakkiz yuz qirq ming) so‘m QQS bilan.
	Rezident ishtirokchilar: taklif etilayotgan import tovarlari O‘zbekiston Respublikasi hududida IM-40 bojxona rejimida rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim. Rezident ishtirokchining narx taklifiga tovarni Bank omboriga yetkazib berish, bojxona rasmiylashtiruvi, tegishli soliqlar, sertifikatlashtirish va boshqa barcha xarajatlar kiritilgan bo‘lishi shart. Norezident ishtirokchilar: narx taklifi CIP (Incoterms 2010) sharti asosida Toshkent shahridagi bojxona omborigacha yetkazib berish qiymatini o‘z ichiga olgan holda taqdim etiladi. CIP shartiga muvofiq import bojxona rasmiylashtiruvi, import bojxona boji, import QQS, bojxona yig‘imlari va O‘zbekiston Respublikasida import bilan bog‘liq boshqa to‘lovlar Buyurtmachi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu to‘lovlar, sertifikatlashtirish, bojxona brokeri, saqlash, tushirish, bojxona omboridan Bank omborigacha yetkazib berish hamda Bank zimmasiga tushadigan boshqa xarajatlar yakuniy baholashda hisobga olinadi.
Zakalat miqdori	Tanlash summasidan 0 %.
To‘lov shartlari	To‘lov Bank tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi: • shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida 40 foiz miqdorida avans to‘lovi amalga oshiriladi; • keyingi 30 foiz miqdoridagi to‘lov g‘olibdan Bankning brendbukiga muvofiq brendlangan tayyor uskunalarni O‘zbekistonga jo‘natishga tayyorligi to‘g‘risidagi rasmiy xat olinganidan so‘ng 10 (o‘n) ish kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda «To‘lov terminali» uskunasi jo‘natilish vaqtiga qadar OpenWay va «HUMO» sertifikatsiyasidan o‘tgan bo‘lishi lozim;

	• yakuniy 30 foiz miqdoridagi to‘lov uskunalar partiyasi Toshkent bojxona terminaliga yetib kelganidan so‘ng, tomonlar tomonidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hisobvaraq-faktura imzolangan sanadan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida amalga oshiriladi.
To‘lov valyutasi	Rezident ishtirokchilar uchun to‘lov milliy valyutada amalga oshiriladi. Norezident ishtirokchilar uchun to‘lov xorijiy valyutada amalga oshiriladi.
Yetkazib berish manzili	Rezidentlar uchun: SQB Bosh ofisi ombori, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, I.Karimov ko‘chasi, 3a-uy; Norezidentlar uchun: CIP (INCOTERMS 2010), Toshkent shahridagi bojxona ombori.
Yetkazib berish muddati	Oldindan to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab 80 (sakson) ish kunidan oshmasligi kerak.
Takliflar berish muddati	5 ish kuni
Mas’ul xizmat, bog‘laniladigan shaxs, telefon, el. pochta	Xarid komissiyasi kotibi Sh.Niyazov (78)777-77-55 (7054) Korrupsiya holatlari aniqlanganda murojaat uchun tel: 0-800-120-8888

Har bir tovarning boshlang‘ich narxi to‘g‘risida ma’lumot

1-jadval

№	Tovar va ish xizmat turlari	O‘lchov birligi	Tovar va ish xizmatlar soni	Bir birlik uchun narx QQS bilan	Umumiy summa QQS bilan
1	To‘lov terminali (standart komplektatsiya)	dona	3 800	2 750 000	10 450 000 000
2	To‘lov terminali (maksimal komplektatsiya)	dona	20	4 150 000	83 000 000
3	Vending terminallari (maksimal komplektatsiya)	dona	20	1 642 000	32 840 000
	Jami				**10 565 840 000**

To‘lov terminali (standart komplektatsiya)
To‘lov terminali (maksimal komplektatsiya)
Vending terminallari (maksimal komplektatsiya)

XARID ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA (keyingi o‘rinlarda — Yo‘riqnoma)

1 Umumiy qoidalar

1.1 **Mazkur xarid hujjatlari ishlab chiqilishi uchun asos bo‘lgan hujjatlar:**

Ushbu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-iyuldagi “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat bankining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-253-son qarori hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ATBni xususiylashtirish va transformatsiya qilish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali xarid jarayonlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur nizom Bank Kengashining 2024-yil 27-maydagi 288-son qarori bilan tasdiqlangan (2024-yil 11-iyulda 610-son bilan ro‘yxatga olingan).

1.2 **Xarid predmeti:** “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ehtiyojlari uchun bank terminal tarmog‘ini kengaytirish maqsadida to‘lov uskunalari majmuasini xarid qilish

1.3 Xarid O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

1.4 Xaridning eng yuqori narxi:

10 565 840 000 (o‘n milliard besh yuz oltmish besh million sakkiz yuz qirq ming) so‘m QQS bilan.

1.5 To‘lov manbalari va bosqichlari:

Moliyalashtirish manbai “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning o‘z mablag‘lari hisoblanadi.

Rezident ishtirokchilar uchun to‘lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

Norezident ishtirokchilar uchun to‘lovlar chet el valyutasida amalga oshiriladi.

1.6 ““O‘zsanoatqurilishbank” ATB ehtiyojlari uchun bank terminal tarmog‘ini kengaytirish maqsadida to‘lov uskunalari majmuasini xarid qilish” bo‘yicha **Texnik topshiriq** xarid predmeti texnik qismida keltirilgan.

2 Xarid tashkilotchilari

2.1 Buyurtmachi – “O‘zsanoatqurilishbank” ATB.

Buyurtmach manzili: O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, I.Karimov ko‘chasi, 3A-uy, “O‘zsanoatqurilishbak” ATB Bosh ofisi

Tel.: (998-78) 777 77 55 (7054);

MFO00440; STIR: 200 833 707

Hisob raqam: 19907000000000440600; “O‘zsanoatqurilishbak” ATB Amaliyot boshqarmasi.

2.2 Shartnoma tuzuvchi: “O‘zsanoatqurilishbak” ATB

2.3 Xarid Buyurtmachi tomonidan tashkil etilgan, kamida yetti nafar a’zodan iborat xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

3 Xarid ishtirokchilari

3.1 Xaridda mulkchilik shaklidan qat’i nazar, texnik topshiriqda nazarda tutilgan mezonlarga javob beradigan har qanday yuridik shaxs ishtirok etishi mumkin.

4	**Xarida ishtirok etish niyati haqida bildirish tartibi**	4.1	Xaridda ishtirok etish uchun ishtirokchi quyidagilarni bajarishi lozim: a) Xarid shartlari bilan tanishish maqsadida Bankning rasmiy veb-saytida (https://www.sqb.uz/press-center/tenders) joylashtirilgan mazkur xarid hujjatlarining barcha ilovalarini o‘z ichiga olgan elektron nusxasini olishi (yuklab olishi) lozim. b) Texnik topshiriqni ham Bankning rasmiy veb-saytida (https://www.sqb.uz/press-center/tenders) joylashtirilgan elektron shaklda olishi (yuklab olishi) hamda taklif etilayotgan tovarlarning xarid hujjatlarining texnik qismiga muvofiqligini baholashi lozim; v) 1- va 2-ilovalarda belgilangan talablariga muvofiq ishtirokchining texnik va malaka hujjatlarini, shuningdek, narxga oid hujjatlarini (barcha kafolat xatlari va boshqa bosma hujjatlar hamda ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan holda) taqdim etishi lozim.
5	**Xarid ishtirokchilarining malakasini baholash**	5.1	Ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati 1-ilovada keltirilgan.
		5.2	Ishtirokchilar malakasini baholash jarayonida quyidagi tashkilotlar xaridda ishtirok etishga qo‘yilmaydi: - Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan tashkilotlar; - Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo‘lgan tashkilotlar; - “Buyurtmachi” bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida bo‘lgan tashkilotlar; - Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan tashkilotlar; - Ta’sischilari bir xil yuridik yoki jismoniy shaxslar bo‘lgan ishtirokchilar; - Raqobatga qarshi harakatlarni amalga oshirayotgan yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuviga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘zaro affillanganligi aniqlangan ishtirokchilar; - Boshqa xarid ishtirokchilariga nisbatan konsorsium tarkibiga kiruvchi ishtirokchilar mustaqil ravishda xaridda ishtirok etish huquqiga ega emas.
		5.3	Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlashtiradi: - Ishtirokchi davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining amaldagi yoxud sobiq mansabdor shaxsi yoki xodimiga davlat xaridlari jarayonida Buyurtmachining biror-bir harakatni amalga oshirishi, qaror qabul qilishi yoki tartib-taomilni qo‘llashiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida bevosita yoki bilvosita har qanday shaklda mukofot, ishga yollash taklifi yoki boshqa qimmatli buyum yoxud xizmatni taklif qilsa, taqdim etsa yoki taqdim etishga rozi bo‘lsa; - Ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni amalga oshirsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuviga ega bo‘lsa, shuningdek, affillanganlik holatlari aniqlansa.
6	**Taklif va uni rasmiylashtirish tartibi**	6.1	Ishtirokchilarning takliflari ishtirokchining yopiq konvertida, muhrlangan holda (tashqi va ichki tomondan, tashqi qismiga o‘chirilmaydigan tarzda «XARID O‘TKAZILGUNGA QADAR OCHILMASIN» yozuvi tushirilgan holda) xarid komissiyasiga quyidagi manzil bo‘yicha taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, I. Karimov ko‘chasi, 3A-uy, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Bosh ofisi binosi (pochta indeksi: 100027).

6.2 Taklif quyidagi ikki qismdan iborat:

- Mazkur xarid hujjatlarining 1-ilovasida ko‘rsatilgan barcha hujjatlar joylashtirilgan tashqi konvert yoki quti (tashqi konvert);

- Mazkur xarid hujjatlarining 2-ilovasida belgilangan qoidalarga muvofiq narx taklifi joylashtirilgan ichki konvert (tashqi konvert yoki quti ichiga joylashtiriladi).

6.3 Taklif, unga tegishli barcha hujjatlar, shuningdek, ishtirokchi va Buyurtmachi o‘rtasidagi yozishmalar o‘zbek, rus va/yoki ingliz tillarida taqdim etiladi. Taklif matnida bir nechta tildan foydalanilganligi sababli matnlar o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, o‘zbek yoki rus tillaridagi matn ustuvor hisoblanadi.

6.4 Xarid ishtirokchisi:

- taqdim etilayotgan ma’lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi hamda ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi;
- faqat bitta taklif taqdim etish huquqiga ega;
- takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifini qaytarib olish yoki unga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

6.5 Taklif ikki qismdan iborat:

- Texnik qism Buyurtmachining texnik talablariga muvofiq bo‘lishi hamda Bankning rasmiy veb-saytida (https://www.sqb.uz/press-center/tenders) ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq taklif etilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning batafsil tavsifini o‘z ichiga olishi va tashqi konvertga joylashtirilishi lozim.

- Tijorat qismi xarid shartlariga muvofiq bo‘lishi, yakuniy summani o‘z ichiga olishi hamda ichki konvertga joylashtirilishi lozim.

6.6 Takliflar Bankning rasmiy veb-saytida (https://www.sqb.uz/press-center/tenders) e’lon joylashtirilgan sanadan boshlab 5 ish kuni davomida qabul qilinadi.

6.7 Ishtirokchilar takliflarining amal qilish muddati takliflarni taqdim etish muddati tugagan kundan boshlab kamida 45 kunni tashkil etishi lozim.

6.8 Xarid komissiyasi xarid ishtirokchisining asoslantirilgan so‘roviga ko‘ra takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Mazkur qaror barcha xarid ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etiladi.

7 Takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish

7.1 Takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi e’lon Bankning rasmiy veb-saytida (https://www.sqb.uz/press-center/tenders) joylashtiriladi.

8 Takliflarni ko‘rib chiqish tartibi va baholash mezonlari

8.1 Takliflarni baholash 2-ilovada ko‘rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Takliflarni baholash uchun xarid komissiyasi ekspertlar va xarid komissiyasi a’zolaridan iborat baholash guruhini tuzish huquqiga ega.

Takliflarni baholash jarayonida xarid komissiyasi ishtirokchilardan ularning takliflariga oid tushuntirishlar va/yoki qo‘shimcha hujjatlar hamda ma’lumotlarni so‘rash huquqiga ega. Mazkur jarayon xaridni tashkil etuvchi orqali belgilangan tartibda rasmiy ravishda, yozma shaklda amalga oshiriladi.

Tushuntirish berish jarayonida taklifning mohiyatiga, shuningdek, uning narxiga oid har qanday o‘zgartirishlar kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.2 Hujjatda belgilangan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan xarid ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

8.3 Har qanday xarid ishtirokchisi xarid natijalari yuzasidan tushuntirish berish to‘g‘risida Buyurtmachiga so‘rov yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi bunday so‘rov kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida xarid ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

8.4 Qaror xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

9 Tomonlarning javobgarligi

9.1 O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlik quyidagilarga yuklanadi:

- Kelib tushgan takliflarni hisobga olish, ularning saqlanishi va maxfiyligini ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga;

- Takliflarni o‘rganish uchun tuzilgan xarid komissiyasi raisi va a’zolariga, shuningdek, baholash guruhi a’zolariga — ma’lumotlarni oshkor etganlik, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a’zolari va jalb etilgan ekspertlar bilan til biriktirganlik, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarni sodir etganlik uchun;

- Shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni miqdoriy, sifat va texnik ko‘rsatkichlar bo‘yicha bajarmagan xarid g‘olibiga — O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik yuklanadi.

10 Boshqa shartlar

10.1 Xarid quyidagi hollarda amalga oshmagan deb topiladi:

- Xaridda ikkitadan kam ishtirokchi qatnashgan (kamida 2 nafar ishtirokchi talab etiladi) yoki xaridda hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa;

- Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning birortasi ham xarid hujjatlarining texnik qismiga muvofiq bo‘lmasa;

- Taqdim etilgan barcha takliflarda zarur hujjatlar va/yoki ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa.

Bunday holatda Buyurtmachi xarid hujjatlarida belgilangan shartlar, mezonlar hamda ishlar va xizmatlarga qo‘yilgan talablarni o‘zgartirmagan holda xaridni qayta o‘tkazishi shart.

10.2 Zarurat tug‘ilganda, Buyurtmachi xarid hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Xarid hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan kamida 2 kun oldin qabul qilinishi mumkin.

Takliflarni taqdim etish muddati davomida xarid hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, takliflarni taqdim etish muddati xarid hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilgan sanadan boshlab kamida 7

bank kuniga uzaytirilishi lozim. Xarid hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish jarayonida xizmat turini yoki uning xususiyatlarini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shu bilan birga, agar xarid o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan ma’lumotlar o‘zgartirilgan bo‘lsa, xarid o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa ham tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

10.3 Buyurtmachi g‘olib deb topilgan taklifni aksept qilishdan oldin istalgan vaqtda xaridni bekor qilish huquqiga ega. Xarid bekor qilingan taqdirda, Buyurtmachi ushbu qarorning asoslantirilgan sabablarini e’lon qiladi.

10.4 Xarid ishtirokchisi xarid o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa belgilangan shaklda Buyurtmachiga xarid hujjatlari qoidalariga oid tushuntirish berish to‘g‘risida so‘rov yuborish huquqiga ega.

Agar mazkur so‘rov takliflarni taqdim etish muddati tugashidan kamida ikki kun oldin Buyurtmachiga kelib tushgan bo‘lsa, Buyurtmachi so‘rov kelib tushgan sanadan boshlab ikki ish kuni ichida belgilangan shaklda xarid hujjatlari qoidalariga oid tushuntirishlarni yuborishi shart.

Xarid hujjatlari qoidalariga beriladigan tushuntirishlar ularning mohiyatini o‘zgartirmasligi lozim.

10.5 Xarid natijalariga ko‘ra, shartnoma xarid hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

G‘olib tomonidan shartnomaning o‘z vaqtida imzolanmasligi shartnoma tuzishdan bosh tortish sifatida baholanishi mumkin. Bunday holatda yetkazib berish huquqi zaxira yetkazib beruvchiga o‘tkaziladi.

Bunda Buyurtmachi zaxira g‘olib bilan uning taklif narxini xarid g‘olibining narxi darajasigacha pasaytirish bo‘yicha muzokaralar olib borish hamda xarid g‘olibi tomonidan taklif etilgan shartlar asosida shartnoma tuzish yoki shartnoma tuzishdan bosh tortish huquqiga ega.

11. Xarid natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

11.1 Xarid natijalariga ko‘ra, shartnoma xarid hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlar, shuningdek, ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlar asosida tuziladi.

11.2 Xarid g‘olibi e’lon qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgandan so‘ng, Buyurtmachi mazkur xarid hujjatlariga muvofiq shartnoma loyihasini xarid g‘olibiga yuboradi. Shartnoma loyihasini olgan xarid g‘olibi yoki zaxira ijrochisi shartnomani imzolashi lozim.

11.3 Xarid g‘olibi bilan shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida tuziladi.

11.4 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni 71-moddasiga muvofiq, Buyurtmachi va g‘olib o‘rtasida tuziladigan shartnoma hamda shartnomaga qo‘shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim.

Xarid natijalariga ko‘ra tuziladigan shartnoma Kompleks ekspertiza markazining ijobiy xulosasi olinganidan so‘ng imzolanadi.

Agar ijobiy xulosa taqdim etilmasa yoki Markazning e’tirozlari g‘olib tomonidan bartaraf etilmasa, Markazning e’tirozlari inobatga

olingan holda shartnoma tuzish va u bo‘yicha majburiyatlarni bajarish huquqi zaxira g‘olibga o‘tadi.

Bunday holatda zaxira g‘olib 10 kun ichida shartnoma tuzishga roziligi yoki uni rad etishi to‘g‘risida Bankni xabardor qilishi lozim.

1-ilova

Xarid bo‘yicha taklif tarkibiga kiruvchi hujjatlar
RO‘YXATI

Tashqi konvert:

1. Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi (1-shakl).
2. Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi
3 Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi
4. O‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi (2-shakl).
5. Insofsiz ijrochilarning yagona reestrida qayd etilmaganligi (2-shakl)
6. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma’lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi
7. Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ariza (3-shakl)
8. Ishtirokchi texnik topshiriq va tanlash hujjatlari bilan tanishganligi, agar g‘olib deb topilgan taqdirda ularni bajarishga roziligi to‘g‘risida kafolat xati (4-shakl)
9. Texnik-malakaviy qismi bo‘yicha hujjatlar.

.

Ichki konvert:

1. Narx taklifi.

Shakl №1

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Biz, _____ (tashkilot nomi), ushbu xat orqali shuni kafolatlaymizki, tuziladigan shartnomani to‘liq va sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha resurslarga egamiz. Jumladan:

- zarur texnik vositalar va uskunalar;
- yetarli moliyaviy mablag‘lar;
- moddiy resurslar;
- malakali kadrlar tarkibi;

shuningdek, shartnoma majburiyatlarini o‘z vaqtida va belgilangan talablar asosida bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa barcha resurslar mavjud.

Biz zim-mamizga yuklatilgan majburiyatlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ravishda, belgilangan muddatlarda va sifatli bajarishni o‘z zimmamizga olamiz.

Rahbar F.I.Sh: _____

Imzo: _____

M.O‘.

Shakl №2

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

_____ ushbu xat bilan:
(tashkilot nomi)

1) Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligini;

2) “O‘zsanoatqurilishbank ” ATB bilan sudlashish yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;

3) “O‘zsanoatqurilishbank ” ATB bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yo‘qligini;

4) _____*(tashkilot nomi)*_____, shu jumladan uning ta’sischilari imtiyozli soliq rejimini ta’minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma’lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta’minlamaydigan davlat yoki hududlarda (offshor zonalarida) ro‘yxatdan o‘tmaganligi va bank hisob raqamlariga ega emasligini;

5) Insofsiz ijrochilar Yagona reestrida mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Rahbar F.I.Sh: _____

Imzo: _____

M.O‘.

Shakl №3

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

Xarid komissiyasi

Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘yilmaslik bo‘yicha
ARIZA

Ushbu xat bilan _____ kompaniyasi:
(tashkilot nomi)

1) O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonuni talablariga rioya etishni;

2) Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining amaldagi yoxud sobiq mansabdor shaxsiga, shuningdek xodimiga bevosita yoki bilvosita har qanday mukofot bermaslikni va taklif etmaslikni, Tanlash jarayonida Buyurtmachining biron-bir xarakatini sodir etishga, qarorini qabul qilishga yoki biror-bir tanlash taomilini qo‘llanilishiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ishga yollash haqida taklifni yoki har qanday qimmatli narsani yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita ravishda taklif qilmaslikni;

3) Raqobatga qarshi xarakatlarni sodir etmaslikni, shuningdek manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslikni;

4) Firibgarlik, ma’lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olishga;

5) Yolg‘on ma’lumotlar yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etmaslikni hamda mazkur lotda ishtirok etuvchi affillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishni o‘z zimmasiga oladi.

6) Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini, shuningdek Ishtirokchi ta’sischilari va/yoki xodimlari orasida ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlari mavjud emasligini;

7) Narxlarni yoki Tanlash natijalarini o‘zgartirish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan til biriktirmaslikni tasdiqlaymiz.

Rahbar F.I.Sh _____

Imzo: _____
M.O‘.

Shakl №4

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

_____*(tashkilot nomi)*_____ ushbu Tanlash bo‘yicha Texnik topshiriq va xarid hujjatlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi. Agar tashkilotimiz Tanlashda g‘olib deb topilgan taqdirda, biz tovar (ish, xizmatni) texnik shartlarga va xarid hujjatlariga to‘liq muvofiq ravishda etkazib berishga (bajarishga) rozilik beramiz.

Rahbar F.I.Sh _____

Imzo: _____

Shakl № 5

Texnik xususiyatlarning muvofiqligini taqqoslash jadvali.

1-jadval

№ п/п	Texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talab (xususiyat/ko‘rsatkich).	Taklif etilayotgan mahsulotning xususiyati/ko‘rsatkichi.	Mos keladi / Mos kelmaydi / Ustun (yuqori darajada)
Taklif etilayotgan tovar brendi va modeli:			
1	**OT versiyasi:** Kamida Android 10		
2	**Protsessor:** 64-bitli, kamida 4 yadroli, chastotasi 1.8 GGs dan kam bo‘lmagan		
3	**Xotira hajmi:** Katta hajmli xotira, kamida 16 GB (ROM) + 2 GB (RAM) Extended microSD sloti yordamida 128 GB gacha kengaytirish imkoniyati		
4	**Kartalar uchun slotlar:** Kamida 2 ta SIM + PSAM + microSD		
5	**Displey:** Ekran turi: rangli sensorli, kamida 5,5 dyuym, IPS HD 720 x 1280 pikselli		
6	**Printer:** Termoprinter — 80 mm/s | Qog‘oz o‘ramini qo‘llab-quvvatlash: 58 mm / 25 mm (standart) yoki 40 mm (opsional).		
7	**Kartani o‘qish qurilmasi:** Kartani o‘qish qurilmasi: Chip o‘quvchi | Kontaktsiz NFC | Magnit tasma MAG-yo‘lakchalari 1, 2, 3, istalgan yo‘nalishda o‘qish.		
8	**Smart-kartani o‘qish qurilmasi:** PCI PTS 6.x SRED CE (RED 2014/53/EU) CE (EMC 2014/30/EU) JCB/RUPAY/CUP/Amex EMV Contact L1 & L2 EMV Contactless L1 Visa Paywave Mastercard Paypass UnionPay HUMOpay		
9	**Ulanish:** Kamida 4G/LTE, 3G/2G + Wi-Fi 2.4 GGs, 5 GGs		

	+ 4.2 dan past bo‘lmagan Bluetooth		
10	**Kamera:** O‘rnatilgan qo‘zg‘almas orqa kamera Kamida 5 MP, avtofokus		
11	**Navigatsiya:** GPS/GLONASS/Beidou/Galileo (kamida 3 ta tizimni qo‘llab-quvvatlash)		
12	**Portlar:** OTG funksiyasiga ega USB Type-C		
13	**Ovoz:** Dinamik va (yoki) zummer		
14	**Batareya:** Sig‘imi kamida 4 000 mA·s bo‘lgan olinadigan akkumulyator Kamida 8 soatlik avtonom ishlashni ta’minlash. Batareyani boshqarish tizimining mavjudligi.		
15	**Atrof-muhit sharoitlari:** ° Ishlash harorati: 0 °C dan +45 °C gacha. Saqlash harorati: −20 °C dan +70 °C gacha. Nisbiy namlik: 5 % dan 95 % gacha, kondensatsiz		
16	**Ta’minot kuchlanishi:** Kirish: 100–240 V o‘zgaruvchan tok.		

2-jadval

№ п/п	**Texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talab (xususiyat/ko‘rsatkich).**	**Taklif etilayotgan mahsulotning xususiyati/ko‘rsatkichi.**	**Mos keladi / Mos kelmaydi / Ustun (yuqori darajada)**
Taklif etilayotgan tovar brendi va modeli:			
1	**OT:** Kamida Android 15		
2	**Protsessor (CPU):** Kamida Octa-Core CPU: 2×A75 @ 2.0GHz + 6×A55 @ 1.8GHz		
3	**Xotira hajmi:** Kamida 4GB (RAM); 64GB (ROM)		
4	**Kartalar uchun slotlar:** 1 ta Nano SIM sloti; 1ta Mini SAM sloti; eSIM		
5	**Displey:** Kamida ikkita sensorli displey.		

	Asosiy: kamida 6,67", IPS HD+, 720×1600. Qo‘shimcha: kamida 2,45" IPS, 172×378.		
6	**Printer:** 2" termoprinter; qog‘oz ruloni diametri kamida 40 mm; bosish tezligi kamida 100 mm/soniya		
7	**Kartani o‘qish qurilmasi:** IC-kartalar, magnit kartalar va NFC qo‘llab-quvvatlanishi.		
8	**Smart-kartani o‘qish qurilmasi:** PCI PTS 6.x SRED EMVCo L1 EMVCo L2 EMVCo L1 CTLSS MC Paypass Mastercard TQM Visa Paywave Expresspay (AMEX) Discover-DPAS JCB UPI Rupay Pure Paynet MCCS		
9	**Ulanish:** 4G/3G/2G; Wi-Fi IEEE 802.11 a/b/g/n/ac (2,4 va 5 GGs); Bluetooth kamida 5.1		
10	**Kamera:** Kamida ikkita kamera: old kamera kamida 2MP; asosiy kamera kamida 5MP		
11	**Navigatsiya:** GPS/ A-GPS/GLONASS/BDS/Galileo		
12	**Portlar:** 1×Type-C; 6×Pogo pin		
13	**Ovoz:** 1 ta dinamik, kamida 90 dB; kamida 2 ta mikrofon		
14	**Batareya:** Olinadigan litiy-polimer batareya, 3 040mA·soat/7,6 V; resursi 800 sikl.		
15	**Atrof-muhit sharoitlari:** ° Ishlash harorati: -10 °C dan +50 °C gacha. Saqlash harorati: −20 °C dan +70 °C gacha. Nisbiy namlik: 5 % dan 95 % gacha, kondensatsiz.		

16	**Ta’minot kuchlanishi:** Adapter kiritish: AC 100-240 V; chiqishi: 5V/2A		

3-jadval

№ п/п	**Texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talab (xususiyat/ko‘rsatkich).**	**Taklif etilayotgan mahsulotning xususiyati/ko‘rsatkichi.**	**Mos keladi / Mos kelmaydi / Ustun (yuqori darajada)**
Taklif etilayotgan tovar brendi va modeli:			
1	**Quvvat manbai:** 5–40V, 2A, maksimal 10W		
2	**Interfeyslar:** MDB, UART, NFC, GSM 2G, LTE		
3	**LCD:** 2,4 dyuymdan katta bo‘lmagan, 240x320		
4	**Antennalar:** o‘rnatilgan GSM, o‘rnatilgan NFC		
5	**Akkumulyator:** Kamida 350 mA/soat		
6	**To‘lov tranzaksiyasini o‘tkazish vaqti:** 5 soniyadan oshmasligi kerak (GSM signali sifatiga bog‘liq)		
7	**O‘lchamlari:** 85 mm x 85 mm x 22 mm dan katta bo‘lmasligi kerak.		
8	**Biper:** 3 kHs		
9	**Og‘irligi:** 100 grammdan oshmasligi kerak		
10	**Harorat diapazoni:** -20 … +50		
11	**Sertifikatlar:** Mastercard Contactless L2 Visa Contactless L2 EMVCo Contactless L1 TQM / SoC		

Rahbar F.I.Sh _____

Imzo: _____

Shakl №6

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Agar tashkilotimiz Tanlashda g‘olib deb topilgan taqdirda, biz 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida OpenWay sotuvchisidan hamda “HUMO” to‘lov tizimidan tegishli sertifikatlashtirish loyihalari ochilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, sanoat ekspluatatsiyasiga chiqish paytiga qadar tegishli sertifikatlarni taqdim etish majburiyatini olamiz.

Rahbar F.I.Sh _____

Imzo: _____

Takliflarni baholash usuli – Eng past narx usuli

Eng past narx usuli - texnik-malaka qismi bo‘yicha minimal o‘tish ballidan kam bo‘lmagan ball to‘plagan va eng past narxni taklif etgan ishtirokchi g‘olib deb e’lon qilinadi. Minimal ball 25 ball.

№	Mezonlar	Baholash	Majburiyat	Eslatma
1	Shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarning mavjudligi.	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	**№1-shakl** unga muvofiq kafolat xati taqdim etilishi kerak (shakl xarid hujjatlariga 1-ilovada mavjud).
2	Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqning mavjudligi.	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	Tashkilotning davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi
3	Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	Yuridik shaxs – rezidentlarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida davlat soliq organining ma’lumotnomasi. Norezidentlar — xorijiy yuridik shaxslar uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida tegishli vakolatli organning ma’lumotnomasi.
4	Ishtirokchiga nisbatan bankrotlik protseduralari joriy etilmaganligi.	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	**№2-shakl** kafolat xati xarid hujjatlariga 1-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq taqdim etilishi kerak. Har bir band to‘liq to‘ldirilishi va rasmiylashtirilishi lozim
5	Yagona insofsiz ijrochilar reyestrida ma’lumotlarning mavjud emasligi.	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	**Shakl №2** bo‘yicha kafolat xati taqdim etilishi lozim (shakl xarid hujjatlariga 1-ilovada keltirilgan). Har bir band to‘liq to‘ldirilishi va tegishli tartibda rasmiylashtirilishi kerak
6	Ishtirokchida bajarilmagan sud qarorlari bo‘yicha majburiyatlarning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi ma’lumotlar bazalarida mavjud emasligi	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	Ma’lumotlar bazasidan skrinshot (ekran tasviri) taqdim etiladi.Majburiy ijro byurosi (Mib.uz). Majburiyatlar mavjud bo‘lganda ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi

				Norezidentlar uchun qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida erkin shakldagi kafolat xati
7	Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ariza	Mos keladi/ Mos kelmaydi	Majburiy	**3-Shakl** Kafolat xati xarid hujjatlariga 1-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq taqdim etilishi kerak. Har bir band to‘liq to‘ldirilishi va tegishli tartibda rasmiylashtirilishi lozim

Texnik-malaka qismini baholash tartibi va mezonlari.

1	Ishtirokchi texnik topshiriq va tanlash hujjatlari bilan tanishganligi, agar g‘olib deb topilgan taqdirda ularni bajarishga roziligi to‘g‘risida kafolat xati	Mavjud – 5 ball Mavjud emas – 0 ball	Majburiy	**Kafolat xati 4-shaklga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.** Agar ishtirokchi texnik topshiriq va tanlash hujjatlari bilan tanishganligi, agar g‘olib deb aniqlangan taqdirda ularni bajarishga roziligini bildirmasa yoki talabga mos kelmagan hujjat taqdim etilganda ishtirokchi **0 ball bilan baholanadi**
2	Texnik xususiyatlarning muvofiqligini taqqoslash jadvali	Mos keladi – 5 ball; Mos kelmaydi – 0 ball	Majburiy	**Jadval 5-shaklga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.** Texnik xususiyatlarga mos kelmagan ishtirokchining taklifi **0 ball bilan baholanadi.** Jadval shakliga mos kelmagan hujjat taqdim etgan ishtirokchi **0 ball bilan baholanadi**
3	Bankning protsessing markazi bilan integratsiya qilinganligi yoki OpenWay + HUMO vendoridan sertifikatning mavjudligi (tayyor integratsiya mavjud bo‘lmagan holda — sanoat foydalanishiga topshirilguniga qadar sertifikat taqdim etilishi to‘g‘risida kafolat xati bo‘lishi lozim	Mavjud – 5 ball Mavjud emas – 0 ball	Majburiy	**Tasdiqlovchi hujjat** Bankning protsessing markazi bilan integratsiya qilinganligi yoki OpenWay + HUMO vendoridan sertifikat nusxasi. Agar ishtirokchida OpenWay sotuvchisidan hamda “HUMO” to‘lov tizimidan tegishli hujjatlar bo‘lmagan taqdirda, u **6-shaklga muvofiq** kafolat xatini taqdim etishi shart. Talabga muvofiq hujjat taqdim etilmaganda, shuningdek, 6-shakliga mos kelmagan hujjat taqdim etgan ishtirokchi **0 ball bilan baholanadi**
4	Ishtirokchi taklif etilayotgan uskunalarini *(1. To‘lov terminali (standart*	Mavjud – 5 ball	Majburiy	**Tasdiqlovchi hujjat**

	komplektatsiya); *2. To‘lov terminali (maksimal komplektatsiya);* *3. Vending terminallari (maksimal komplektatsiya))* O‘zbekiston Respublikasi hududida yetkazib berish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi va ishlab chiqaruvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida berilgan eksklyuziv distribyutorlik/yetkazib berish maqomini hujjat bilan tasdiqlab taqdim etishi shart	Mavjud emas – 0 ball		*Ishlab chiqaruvchining avtorizatsiya xati (Authorization Letter) Agar taklif etilayotgan uskunalar turli ishlab chiqaruvchilarga tegishli bo‘lgan taqdirda har bir uskuna uchun ishlab chiruvchisidan alohida taqdim etiladi.* Talabga mos kelmagan hujjat taqdim etgan ishtirokchi **0 ball bilan baholanadi**
5	Ishtirokchi Buyurtmachiga taklif etilayotgan uskuna modellarining ***(1. To‘lov terminali 1 dona (standart komplektatsiya yoki maksimal komplektatsiya);*** ***2. Vending terminallari (maksimal komplektatsiya))*** test namunalarini taqdim etishi lozim	Taqdim etildi 5 ball Taqdim etilmadi 0 ball	Majburiy	**Tasdiqlovchi hujjat.** Buyurtmachiga namunlar taqdim etilganini tasdiqlovchi hujjat. **Namunalar taqdim etilmaganda ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi**

2. Taklifning narx qismini baholash.

Ishtirokchilarning narx takliflarini baholash xarid komissiyasi tomonidan texnik va malaka baholashi o‘tkazilgandan so‘ng ishtirokchilarning narx takliflari asosida amalga oshiriladi.

№	Mezon	Boshlang‘ich narx	Eslatma
1	Narx taklifi	**10 565 840 000** (o‘n milliard besh yuz oltmish besh million sakkiz yuz qirq ming) so‘m QQS bilan.	Texnik-malakaviy bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilar orasida eng arzon narxni taklif qilgan qatnashchi g‘olib deb e’lon qilinadi.

Izoh: xaridda xorijiy va mahalliy ishtirokchilarning narxlarini to‘g‘ri solishtirish maqsadida baholashda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to‘lovlari va boshqa majburiy to‘lovlar) hisobga olinadi.

Norezident ishtirokchining narx taklifi barcha qo‘shimcha xarajatlar qo‘shilgandan so‘ng boshlang‘ich narxdan oshib ketsa, uning taklifi ko‘rib chiqilmaydi.

Boshqaruvi Raisining birinchi o'rinbosari: **A.Ergashev**

kelishuvchilar: Sh.Jumayev, M.Karimov, S.Sanjarov, A.Orifjonov, A.Xujamuratov, Sh.Karimov

https://hujjat.sqb.uz/?pin=xW29xK14&id=11982483-3b31-44a2-b816-50f49ecf696c